

O`LIM JAZOSI JINOYATNI OLDINI OLISH UCHUN SAMARALI YECHIMMI?

Rasulova Ruxshona Zafar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs "B" potok 2-guruh talabasi.

tel: +998-97-250-27-07. e-mail: rasulovaruxshona07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15150832>

Annotatsiya. Barchamizga ma'lumki, jazo tizimlari haqida so'z yuritayotganda o'lim jazosi hech qachon chetda qoldirilmaydi. Ushbu jazo chorasining kelib chiqishi juda uzoq tarixga borib taqalsada, haligacha dunyoning ko'plab mamlakatlarida oliy jazo sifatida qo'llanib kelinmoqda. Mazkur maqolada o'lim jazosi jinoyatchilikka qarshi kurashda qanday ahamiyat kasb etishi va uning inson huquqlariga ta'siri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'lim jazosi, insoniyat, jinoyatchilik, qatl, tarix, korrupsiya konstitutsiya, inson huquqlari, jinoyat, shaxs.

IS THE DEATH PENALTY AN EFFECTIVE SOLUTION TO PREVENT CRIME?

Abstract. As we all know, the death penalty is never left out when talking about penal systems. Although the origin of this punishment dates back a very long time, it is still used as the ultimate punishment in many countries of the world. This article discusses the importance of the death penalty in the fight against crime and its impact on human rights.

Keywords: death penalty, humanity, crime, execution, history, corruption, constitution, human rights, crime, person.

ЯВЛЯЕТСЯ ЛИ СМЕРТНАЯ КАЗНЬ ЭФФЕКТИВНЫМ РЕШЕНИЕМ ДЛЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ?

Аннотация. Как мы все знаем, смертную казнь никогда не забывают, когда речь идет о пенитенциарных системах. Хотя это наказание возникло очень давно, оно до сих пор используется в качестве высшей меры наказания во многих странах мира. В статье обсуждается значение смертной казни в борьбе с преступностью и ее влияние на права человека.

Ключевые слова: смертная казнь, гуманность, преступление, казнь, история, коррупция, конституция, права человека, преступление, личность.

So'nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda o'lim jazosining qo'llanilishi jinoyatchilikni kamayishiga olib kelishi haqida asossiz muhokamalar avj ola boshladi.

Aslida, o'lim jazosining bor yoki yo'qligi jinoyatchilik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Negaki, Chezare Bekkaria ta'kidlaganidek «jinoyatchilikni oldini olishda jazoning shavqatsizligi emas, balki uning muqarrarlighi ko'proq ahamiyatga ega». Bu fikrlar ayni haqiqatdir. Shunday ekan, o'lim jazosi haqida gapirganda uning nafaqat huquqiy tomonini, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatlarini ham e'tiborga olish lozim.

Shunday bo'lsa-da, ko'plab davlatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham oliy jazo sifatida o'lim jazosi butun umrlik yoki katta muddatlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan. Umuman olganda, o'lim jazosi insoniyat abadiy tortishib o'tadigan, aniq to'xtamga kelish qiyin bo'lgan bahslardan biridir.

O'lim jazosi — qonun tomonidan yo'l qo'yiladigan oliy jazo turi bo'lib, og'ir jinoyatlari uchun insonning qatl etilishi. O'lim jazosi ijro etilayotgan vaqtda davlat tomonidan belgilangan vakillar ishtirok etishi va aynan ular qatlni amalga oshirishlari shart, aks holda bu jarayon qotillik deya baholanadi.

Hozirda dunyoning 130dan ortiq davlatida o'lim jazosi qo'llanilmaydi. Lekin insoniyat borki, bu jazo turi ham mavjud. Butun dunyo huquqshunoslari baravar bu jazoga qarshi chiqqanlarida ham uning yo'qolib ketishiga ishonish qiyin. Yildan-yilga kamayib borayotgan bo'lsa-da, hali-hamon ko'pchilik davlatlarda o'lim jazosi muntazam qo'llanilib kelinadi. Bu davlatlar qatorida o'zining huquqiy tizimi bilan barchaga o'rnak bo'lishga harakat qiladigan AQSh ham bor. Yevropada esa aksincha, deyarli barcha davlatlar bu jazo turidan voz kechishgan. Lekin tarix nuqtai nazaridan bu jazoni eng ko'p qo'llagan va takomillashtirgan xalq sifatida Yevropa xalqini keltirishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizda o'lim jazosi tayinlanadigan jinoyatlar soni bosqichma-bosqich kamaytirilib, bu jazo to'liq bekor qilingan.

Shunga qaramasdan, ayrim fuqarolar tomonidan o'lim jazosini tiklash, uni jinoyat qonunchiligiga qayta kiritish haqida takliflar ham ilgari surilmoqda. Vaholanki, demokratik va insonparvar g'oyalarni oliy qadriyat darajasiga ko'targan dunyodagi aksariyat davlatlarda o'lim jazosi bekor qilingan. Chunki yashash huquqi – har bir insonning tabiiy huquqi bo'lib, unga bu huquqni davlat emas, Yaratganning o'zi ato etgan.

1994 yilda qabul qilingan O'zbekiston Jinoyat kodeksida 33 ta modda bo'yicha o'lim jazosini tayinlashi mumkin edi.

Keyinchalik jinoiy jazolarni liberallashtirish natijasida 2008-yilgacha qonunchilikka muvofiq ikki turdagi jinoyat, ya'ni javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm jinoyatlarini sodir etganlik uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan edi, 2008-yil 1-yanvardan barcha jinoyatlar uchun bekor qilindi.

*O'zbekiston Respublikasida 2008-yilning 1-yanvaridan jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinsin va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etilsin.*¹

Huquqshunos Farhod Primovning ta'kidlashicha, o'lim jazosini qo'llash jinoyatchilikka qarshi kurashishda malakali yoki samarali yechim hisoblanmaydi.

“O'lim jazosi bekor qilinganidan keyin jinoyatchilik soni ko'payganmi, degan masalani tahlil qilib ko'rdik. Bilamizki, 2008-yilgacha qasddan odam o'ldirgan shaxs uchun o'lim jazosi belgilangan edi. Hozir qasddan odam o'ldirish holatlari ko'paydimi? 2008—2021-yilgacha qasddan odam o'ldirish va qasddan odam o'ldirishga suiqasd qilish holatlari 2 baravar kamaygan. Ha, jazo bekor qilingandan keyin ham kamayish kuzatilgan. Ya'ni o'lim jazosi oxirgi, malakali yoki samarali yechim hisoblanmaydi. Yana bir jihati, ko'plab davlatlarda o'lim jazosi belgilangan. Ammo jinoyatchilik kamayib qolgani yo'q. Aksincha, ko'paygan holatlar ham bo'ladi. Masalan, ba'zi davlatlarda korrupsiya uchun o'lim jazosi belgilangan. Lekin har yili qanchadan qancha odam mana shu jinoyatni sodir qiladi. Eng muhim masala jazoning qattiqligi emas, jazoning muqarrarligidir”, — deya ta'kidlagan huquqshunos.

Shu bilan birgalikda yangi islohotlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi natijasida ham ko'pchilikni qiynayotgan ma'lum bir savollarga javob topildi deb bimalol ayta olamiz. Ayniqsa, o'lim jazosi taqiqlanishi konstitutsiyaviy darajada belgilanishi insonparvarlikning muhim ifodasidir.

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng 'ir jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi.²

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi bo'lib, qonun bilan himoya qilinadi.

Uning mazmuni shundaki, hech kimni ataylab hayotdan mahrum qilib bo'lmaydi.

Shuningdek, yashash huquqi davlat zimmasiga inson hayoti xavf ostida qolmasligi uchun hamma narsani qilish majburiyatini yuklaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.08.2005 yildagi PF-3641-son

² O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 25-moddasi

Ushbu norma Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyada, shu bilan birga, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ham nazarda tutilgan. Shaxsning yashash huquqi aynan tug'ilgan paytdan boshlab vujudga keladigan tabiiy va daxlsiz huquq, deb e'tirof etiladi hamda u davlatchilik va qonunlar mavjudligidan qat'i nazar, shaxsga tegishlidir.³

O'lim jazosi bekor qilinganligi sivilizatsiyalashgan demokratik davlatning belgisidir.

O'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinganligi mamlakatimizda umuminsoniy tamoyillar ustuvorligi va xalqaro andozalar amalga joriy etilganligidan darak beradi.

Konstitutsiyamizning 13-moddasida qayd etilishicha, O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Qolaversa, O'zbekiston qo'shilgan birinchi xalqaro hujjat — Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida «Har bir inson yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egadir» deyilgan.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 6-moddasida esa «Har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqidir. Bu huquq qonun bilan muhofaza etiladi.

Hech kim o'zboshimchalik bilan insonni yashash huquqidan mahrum qila olmaydi», deb ta'kidlangan.

Shuningdek, mazkur xalqaro hujjatning BMT Bosh Assambleyasi 1989 yil 15 dekabrda qabul qilgan o'lim jazosini bekor qilishga qaratilgan ikkinchi Fakultativ bayonnomasi barcha hukumatlarni o'lim jazosini bekor qilishga chorlaydi. Shunday ekan, jinoyat va jazoni hal etish masalasida inson hayoti ustuvor bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida O'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinganligi insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillarining, xalqaro huquq me'yorlari umume'tirof etilgan prinsiplarining bajarilishi ifodasidir. Shu bilan birgalikda hozirgi kunda o'lim jazosi bekor qilingan mamlakatlarda jinoyatchilik holatlari kamayganini, o'lim jazosini korrupsiya holatlarini oldini olish maqsadini ko'zlab qo'llayotgan mamlakatlarda aksincha korrupsiya holatlari rivojlanib borayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Fakt: *Odamxo'r Chikatilo qo'lga olingunga qadar to'qqiz nafar begunoh inson uning jinoyatlarida ayblanib, sud hukmi bilan otib tashlangan...*

Ushbu keltirilgan fakt orqali ham o'lim jazosi ba'zi bir aybsiz insonlarning umriga zomin bo'lganligi, ularning huquqlarini poymol qilishini ko'rishimiz mumkin.

³ <https://parliament.gov.uz/articles/1462>

Har qanday holatda ham inson hayoti eng oliy ne'mat, uni yo'qqa chiqarishga hech kimning haqqi yo'q. Barcha tomonlarni hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, dunyodagi o'lim jazosi mavjud bo'lgan davlatlarda demokratiya va inson huquqlariga bo'lgan qarashlar sustligini sezishimiz mumkin. Shunday ekan, bu holat nafaqat ayni bir davlat balki butun dunyo aholisining muammosi hisoblanmog'i lozim. Shuningdek ushbu holatlarni oldin olish maqsadida xalqaro inson huquqlarini himoya qiluvchi va boshqa tashkilotlar, o'z o'rnida davlatlar o'z e'tiborlarini ayni shu masalaga chuqur qaratgan holda, barcha davlatlarda o'lim jazosini bekor qilishga erishishlari mumkin, bu orqali inson huquqlari yanada mustahkamlanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.08.2005 yildagi PF-3641-son
3. <https://parliament.gov.uz/articles/1462>
4. <https://daryo.uz/2023/03/14/ozbekistonda-olim-jazosi-bekor-qilinganidan-keyin-jinoyatchilik-kopayganmi-huquqshunos-javobi>
5. <https://lex.uz>